

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIIY VA O‘RTA MAXSUS TA‘LIM VAZIRLIGI**

**KAMOLIDDIN BEHZOD NOMIDAGI
MILLIY RASSOMLIK VA DIZAYN INSTITUTI**

KOBILOVA FERUZA NASRULLAYEVNA

ANTI-K DAVR TEATRI

USLUBIIY QO‘LLANMA

Bilim sohasi:	100 000-Gumanitar
Ta‘lim sohasi:	150 000-San‘at
Ta‘lim yo‘nalishlari:	5150200-San‘atshunoslik (tasviriy va amaliy san‘at)
	5150200- San‘atshunoslik (san‘at tanqidchiligi)

**TOSHKENT
2020**

Mazkur “Antik davr teatri” nomli uslubiy qo‘llanma o‘z maqsadini insoniyatning qadimgi davrlariga mansub teatr san’ati, me’morchilik va tasviriy san’ati rivojini batafsil yoritib berishga qaratgan. Uslubiy qo‘llanma yoshlarning antik davr teatri, me’morchilik va tasviriy san’at namunalarining badiiy xususiyatlarini tushunishga, ularni idrok eta olish va tahlil qilish ko‘nikmasini shakllantirishga qaratilgan. Yoshlarda insoniyat yaratgan badiiy merosga hurmat, ehtirom va e’tirof tuyg‘ularini shakllantirishga zamin yaratadi. Antik davr teatrining o‘ziga xosligi, badiiy jarayondagi muhim hodisalarni anglab yetishga yordam beradi. Mavzu antik davr teatr janrlari, shakllarining kelib chiqishi va rivojlanishi, badiiy yo‘nalishlari bilan aloqador asosiy tushunchalar, atamalarni mustahkamlash bilan yakunlanadi.

Kafedra: “Tasviriy san’at tarixi va nazariyasi”

Tuzuvchi: F.N.KOBILOVA

Taqrizchilar:

D.M.QODIROVA,

“San’at” jurnali bosh muharriri, s.f.d.

N.B.SAYFULLAYEV,

dotsent, t.f.n.

Muallif Kobilova Feruza Nasrullayevnaning “Antik davr teatri” nomli uslubiy qo‘llanmasi Kamoliddin Behzod nomidagi Milliy rassomlik va dizayn instituti O‘quv-uslubiy kengashining 2019-yil 20-noyabrda 3-sonli bayonnomasi bilan tasdiqlangan.

MUNDARIJA

Kirish.....	4
Antik davr teatri	7
Xulosa	53
Nazorat savollari	55
Glossariy	56
O‘qitish bo‘yicha metodlar	68
Ilova	70
Adabiyotlar ro‘yxati.....	78

KIRISH

“Antik davr teatri” deb nomlangan mazkur o‘quv-uslubiy qo‘llanmaning bosh vazifasi teatr san‘atining shakllanishi va rivojlanishining asosiy bosqichlarini ochib berish, ilk dramaturglar ijodini, asarlarining asosiy janr va shakllarini yoritib berishdan iboratdir.

Teatr san‘atining rivojlanish masalalariga urg‘u bergan holda, shuningdek, antik davr madaniyatining umumtarixiy shart-sharoitlari, g‘oyaviy-estetik qarashlar, ta‘lim va badiiy san‘atining rivojlanishi kabi muhim masalalarni ham yoritishga harakat qilingan.

Insoniyatning madaniy taraqqiyoti tarixini antik teatrsiz tasavvur qilib bo‘lmaydi. Ma‘lumki, antik teatr mazmunan xalq hayoti, uning taqdiri bilan bog‘liq ulug‘vor g‘oyalar teatri sifatida dunyoga kelgan. Antik dunyodan bizga badiiy ijodning tragediya, komediya janrlariga oid benihoya go‘zal, badiiy yuksak adabiy namunalar yetib kelgan.

“Antik davr teatri” uslubiy qo‘llanma o‘z maqsadini insoniyatning qadimgi davrlariga mansub teatr san‘ati, me‘morchilik va tasviriy san‘ati rivojini batafsil yoritib berishga qaratgan. Uslubiy qo‘llanma yoshlarning

antik davr teatri, me'morchilik va tasviriy san'at namunalari badiiy xususiyatlarini tushunishga, ularni idrok eta olish va tahlil qilish ko'nikmasini shakllantirishga qaratilgan. Yoshlarda insoniyat yaratgan badiiy merosga hurmat, ehtirom va e'tirof tuyg'ularini shakllantirishga sababchi bo'ladi. Antik davr teatrining o'ziga xosligi, badiiy jarayondagi muhim hodisalarni anglab yetishga yordam beradi. Mavzu antik davr teatr janrlari, shakllarining kelib chiqishi va rivojlanishi, badiiy yo'nalishlari bilan aloqador asosiy tushunchalar, atamalarni mustahkamlash bilan yakunlanadi.

“Qadimgi Yunon san’ati va Antik davr teatri tarixi” S.Tursunboyevning “Xorij teatri tarixi”, “Jahon teatri tarixi” o‘quv qo‘llanmalarida teatrshunoslikka ixtisoslashtirilgan holda bayon etilgan edi. “Antik davr teatri” uslubiy qo‘llanmasida “Xorij teatri tarixi” qo‘llanmasiga tayangan holatda badiiy jarayonlarga batafsilroq to‘xtalib o‘tildi. Bundan tashqari, teatr san’atining rivojini har tomonlama yoritish maqsadida bir qator xorijiy adabiyotlardan foydalanildi. D.P.Kallistovning “Antichniy teatr”, V.V.Golovnyaning “Istoriya antichnogo teatra” asarlari shular jumlasidandir.

Uslubiy qo‘llanma talabalarda ma’lumotlar bilan ishlash, har bir o‘rganilayotgan davr yodgorliklarida uslubiy sifatlarni ajratish ko‘nikmasini hosil qiladi. O‘quvchilar mavzuni yaxshi o‘zlashtirganliklarini tekshirib ko‘rish imkoniyatini beruvchi nazorat savollari hamda pedagogik metodlar berilgan. O‘quvchi mavzu

tahlili bilan tanishgach, shu haqda mustaqil fikrlash, xulosalar chiqarishga da'vat etuvchi savollarga duch keladi. Natijada u materialni faol o'zlashtirishga erishadi. Qo'llanmada Qadimgi Yunon san'ati va ilm-fanida paydo bo'lgan atamalarning o'zbekcha izohini berish, talabalarni Qadimgi Yunon san'ati, xususan, uning teatr san'atiga qiziqishini oshiradi.

ANTIK DAVR TEATRI

Reja

1. Teatr san'ati paydo bo'lish tarixi.
2. Antik teatr me'morchiligi va tuzilishi.
3. Antik tomoshalarni tashkil qilish va aktyorlar shakllanishi.

Tayanch so'z va atamalar: kult, syujet, tragediya, komediya, dramaturg, orxestra, tetralogiya, teatron, skena, protagonist, devteragonist, tritagonist, fabula, katarsis.

Antik davr san'ati qoldirgan meros bugungi kunga qadar o'z qiymatini yo'qotmagan holda, zamonaviy dunyo madaniyatiga ta'sir ko'rsatib kelmoqda. Ushbu meros tarkibining ajralmas qismi teatr san'ati bo'lib, uning yaralishi qadimiy taraqqiyotga bog'liq holda rivoj topdi.

Teatr san'ati paydo bo'lish tarixi. Rivojlanish tarkibi epik she'riyatga, qadimgi xalq fantaziyalari asosida bunyod bo'lgan asarlardagi afsonaviy obrazlar, insoniy tuyg'ular va dunyoqarashining eng nozik jihat-

lari, qadimgi ilm, tasviriy san'at va me'morchilikning o'ziga xos rivojlanish bosqichlari hamda adabiyotning turli janrlari ta'siri ostida taraqqiy topdi. Dramatik she'riyat asosida teatr san'ati paydo bo'ldi. Taraqqiyotning bosh omili shunda ediki, Afina demokratiyasi ziddiyatli va nuqsonli bo'lsa-da, aynan shu demokratik polisda salohiyatlarni erkin rivojlantirish imkoni tug'ildi, zotan, fuqarosi o'z davlati doirasida o'zini jamiyatning teng va to'la huquqli a'zosi deb bilardi. U polis hayoti bilan uzviy bog'liqligini doimo his etar va o'z hukumatining jamiki siyosiy-iqtisodiy ishlarida jon-dili bilan ishtirok etardi.


Qadimgi Yunon teatri qadimgi davr kultlari va marosimlari asosida (ovchilik, dehqonchilik, diniy udumlarning musiqa, raqs, qo'shiq va so'zlar jo'rligida primitiv tomoshalar tarzida) o'tkazilishi teatr san'atining ilk ko'rinishi edi. Ushbu tomoshalar Qadimgi yunonliklar e'tiqodida bo'lgan hosildorlik ma'budi DIONIS sharafiga uyushtirilgan bo'lib, bir necha kun davom etgan. Ushbu tomoshalar bayramona tarzda o'tkazilib, keyinchalik maxsus teatr tomoshalari uchun bunyod qilingan binolarda dramaturglar, shoirlar va xorchilar musobaqasi o'tkazilgan.

Teatr qadimgi yunonliklar hayoti va madaniyatida muhim o'ringa ega edi. Ushbu kunlar umumxalq dam olish kuni deb e'lon qilinar va barcha aholi teatr tomoshasiga kelishi shart edi.



1-rasm. Akropol. Amfiteatr. Mil. avv. 500-yil

Perikl hukumronligida hattoki Afinadagi kam ta'minlangan aholi tomoshalarga kirishi uchun pul mablag'lari ajratilgan.



2-rasm. Hukmdor Perikl, tax. mil. avv. 494 – 429-yy

Dionis (ikkinchi nomi Vakx ma'budi) yunon afsonasida uzumzorlar va may ma'budi hisoblangan bo'lib, Oliy ma'bud Zevsning o'g'li hisoblangan. Dionis o'lib qayta tiriluvchi ma'bud hisoblanib, Qadimgi yunon panteonidagi asosiy ma'budlardan hisoblangan. Dionis ma'budi, Misr ma'budlari Osiris, Serapis va Amon bilan, qadimgi Eron ma'budi Mitra, Adonis, rimliklar ma'budi Liber bilan tenglashtirilgan. Dionis ma'budlarning "azoblanuvchi" turiga kirib, u bilan bog'liq ko'plab afsonalar dramaturglarga rang barang syujet yaratishga imkon berar edi. Mil.avv. 534-yilda Dionis kulti (xalq ma'budi) asosiy ma'budlardan biri deb e'lon qilinadi va Dionis sharafiga uyushtiriladigan marosimlar har yili nishonlana boshlanadi. Ushbu yildagi teatr tomoshasida o'z asarlari bilan ilk dramaturglardan deb hisoblangan Fespida qatnashadi.

Zamonning ijtimoiy-siyosiy hayoti bilan bog'liqlik, insonga, uning ma'naviy yetukligiga diqqat-e'tibor, yunon eposi va lirikasining eng yaxshi yutuqlaridan foydalanish – bularning hammasi Afina teatrining ulug'vor g'oyalari va ajib badiiy shakllari bo'lishini belgilab berdi. Zo'rlik va zulmning har qanday ko'rinishiga qarshi norozilik, el-yurtning jo'shqin sevishtirish, fuqarolik va insonparvarlik e'tiqodlarini ulug'lash singari g'oyalar taraqqiyparvar insoniyatga hamma zamonlarda hamroh va tushunarli bo'lib kelgan. Shu boisdan ham antik drama qahramonlarining kurashlari,

g'am-anduhlari hozirgi tomoshabinlarni ham hayajonga solib keladi.

Hosildorlik ma'budi Dionis sha'niga atalmish marosim, o'yin va qo'shiqlardan qadimgi yunon dramasi-
sida tragediya (fojia), komediya va satiralar dramasi-
dan iborat uch janr tarkib topgan. Tragediyada Dionis
marosimlarining iztirobli, noxushlik jihatlari aks et-
tirilgan bo'lsa, komediyada kulgili, mazaxomuz jihat-
lari ifodalangan. Satirlar dramasi o'rta janr hisoblan-
gan. Mart oyida Buyuk Dionis sharafiga o'tkazilgan
asosiy bayramda, Dionisning sharqdan qaytishini ni-
shonlashgan.



3-rasm. “Vakx” ma’bud Dionis yo’ldoshi Satir bilan
(Mikelanjelo, 1496-1497-yy.)

Qadimgi xalq ishonchida u yerga Dionis tarbiyalanish uchun jo'natilgan deb hisoblangan. Dionis hamrohlari satir va silenlar hisoblangan, ular afsonaviy ko'rinishda bo'lib, echki terisi yopingan ot dumli maxluqlar bo'lgan. Echki timsoli Dionis afsonalarining ajralmas personaji hisoblangan.

Yunon tragediyasining kelib chiqishi tragediya va komediya so'zlari orqali ham oydinlashadi. Tragediya so'zi ikki yunon so'zidan tarkib topgan: tragos - "echki" va ode - "qo'shiq", ya'ni "echki qo'shig'i" demakdir. Bu tushuncha yana bir bor Dionisning yo'ldosh va hamrohlari – satirlar echki tuyoqli maxluqlar taqlidida tasavvur etilganligini ko'rsatadi. Komediya so'zi komos va ode so'zlaridan kelib chiqqan. "Komos" - bu Dionis sha'niga atalgan qishloq bayramlarida masxaraboz va qiziqchilarning shirakayf bo'lib, bir-biridan kulib, qo'shiqlar aytib namoyish qilib yurishlarini anglatgan. Demak, komediya so'zi "komos qo'shig'i" degan ma'noni anglatadi.

Yunon tragediyasi, odatga ko'ra, har bir yunonga yaxshi tanish bo'lgan mifologiya syujetlariga asoslangan. Shu bois tomoshabinni voqeaning o'zi emas, balki muallifning ma'lum rivoyatni qanday talqin etganligi, qanday ijtimoiy va axloqiy muammolarni olg'a surganligi qiziqtirgan. Dramaturg rivojat bahonasida zamonaviy siyosiy hayot masalalarini olg'a surishi va o'zining axloqiy, falsafiy va diniy qarashlarini yaratishi lozim edi. Keyinchalik tragediya

syujetlari faqatgina Dionis bilan bog‘liq afsonalar bilangina bog‘lanmasdan, troya va fivaliklar afsonalari syujetlari bilan ham bog‘lanadigan bo‘ldi. An‘anaviy xorchilar o‘rnini xor-satirchilar egallagach, yangi janr – satirali drama yuzaga keladi (asoschisi shoir Pratin, mil.avv. 6-5-asr). Shunday qilib qadimgi Yunoniston teatrida uchta janr: tragediya, komediya, satirali drama yuzaga keladi, uchunchi janr bayramdagi tragediyalarining tugallovchi qismi bo‘lib, tetralogiya deb ataladi.



4-rasm. Satir. Massandra saroyi (1892-1902-yy.)



5-rasm. Uch Satir. Gorelef. Svinger saroyi,
Germaniya, Drezdan (1709-1732-yy.)

Afinada bo'lib o'tadigan Buyuk Dionis bayramlari, ma'bud Dionisning ibodatxonasidan haykalini olib chiqib, shahar bo'ylab olib o'tishdan boshlangan. Haykalning olib o'tish jarayonida marosim ishtirokchilari o'yin-kulgi qilishar, difiramb va fallik (qadimgi yunonliklarning ma'bud Dionis sharafiga va boshqa afsonaviy qahramonlar uchun maxsus kuylanadigan qo'shiqlari. Aristotelning fikricha, ushbu marosim qo'shiqlari kuylanish jarayoni komediyaning paydo bo'lishiga sabab bo'lgan) qo'shiqlarni kuylab yer unumdorligini oshirish marosimlarini ado etishar edi. Shu sababli aynan difiramb qo'shiqlardan qadimgi yunon tragediyasi (mil. avv. 6-asrdan mil. gacha), fallik qo'shiqlardan komediya (mil. avv 5-asrdan mil.

gacha) kelib chiqqan. Keyingi kun marosimi Trenochnik ko'chasi bo'ylab davom etib, Akropol etagida joylashgan teatr binosiga borishar edi. Afinada tashkillashtirilgan ilk teatr tomoshasi shaharning markaziy bog'ida, qora terak yonida uyushtirilar edi.



7-8 rasm. Akropol. Amfiteatr. Mil.avv. 500 yil

Antik teatr me'morchiligi va tuzilishi. Mil.avv. 500 yilda teatr tomoshalariga juda ko'p tomoshabinlar yig'ishganligi sababli vaqtinchalik taxtadan ishlangan qurilmalar sinib ketadi va ko'p o'tmasdan teatr tomoshalar uchun maxsus bino qurish to'g'risida kelishib olinadi.


Qadimgi yunon teatr tomoshalar asosan, Akropol hududida, mudofaalangan shaharning yuqori qismida bo'lib o'tar edi.



9-rasm. Akropol. Amfiteatrning chizma ko'rinishi.

Mil.avv. 500-yil

Afina, Pompey, Amman (Iordaniya) hududlarida qadimgi antik amfiteatrlari qoldiqlari bizgacha yetib kelgan. Hududi bo'yicha eng katta teatr mil.avv 350 – 330 da Peloponesda qurilgan Epidavre amfiteatridir. Antik teatr qurilishi to'rt qismdan iborat bo'lgan; Markazida Dionis mehrobi bo'lgan orxestra, amfiteatr orxestrasiga tushadigan teatron va skena.



10-*рasm*. Амфитеатр тuzилишининг chизмаси.





11-12-rasmlar. Amfiteatr. Teatron ko‘rinishi.

Mil.avv. 500-yil

Orxestra bu – xorchilar, aktyorlar va statistlar harakatlanuvchi joy, tekislangan aylana maydon bo‘lib, diametri 27 metr bo‘lgan. G‘arbiy va Sharqiy tarafdin orxestraga tutashgan qiyalikda o‘tish joylari bo‘lib, u yerlarda ma’budga atalgan hadiyalar, keyinchalik taniqli dramaturg-shoirlarning bronzadan ishlangan haykalchalari bezab turgan. Tomoshabinlar joyidan orxestra past, ammo keng to‘siq bilan ajratilgan bo‘lib, tepaga qarab toshdan ishlangan, tomoshabinlar o‘tiradigan pog‘onalar joylashgan pillapoyalar qurilgan. Tomoshabinlar o‘tiradigan joy teatron (“theasthai” ko‘rish ma’nosini anglatadi) deb atalgan. Teatronning birinchi qatori rohiblar uchun hamda amaldor va

hurmatli mehmonlar uchun ajratilgan. Skena qadimgi yunon tilidan tarjima qilganda “palatka” (chayla, tez quriladigan sodda konstruksiya) ma’nosini anglatib, butaforiya, rekvizit, aktyorlar kiyimini almashtiradigan joy bo‘lib, teatronga qarama qarshi tarafdin orxestroga tutashtirib qurilgan. Bu qurilishning bir tomoni tomoshabinlar tarafga qaratilgan bo‘lib, dekoratsiya vazifasini o‘tagan. Dekoratsiyada binoning markaziy va ikki yonlama chiqish yo‘li tasvirlangan bo‘lib, orxestroga tutashgan (paraskena deb nomlangan). Afina teatrlari uch yarusli bo‘lib, 78 ta qatorni o‘z ichiga olgan. Bir vaqtning o‘zida bu yerga 14 mingdan 17 minggacha tomoshabinlar sig‘ishi mumkin edi. Keyinchalik bundan-da mahobatli amfiteatrlar quriladi. Sahna ortida maxsus mashina yordamida bo‘lib o‘tadigan voqealar dekoratsiyalari ko‘rsatiladi. Maxsus mashina skena orqali yurgizilgan. Bu qurilma ekkilema deb atalgan. Paraskenadan turli xil bo‘yalgan doskalar ko‘rsatib olib o‘tilgan. Dekoratsiya an‘analarining paydo bo‘lishi Sofokl nomi bilan bog‘lanadi. Keyinchalik proskenalar (gapiriladigan joy ma’nosini anglatgan) paydo bo‘ladi. Orxestraga tutashgan taxta ko‘prikchali ustunlar sahnaning o‘ziga qurilgan. Antik teatrlarda tom bo‘lmagan, barcha sahna ko‘rinishlari ochiq osmon ostida bo‘lib o‘tgan. Ovoz tomoshabinlarga yaxshi yetib borishi uchun sahnadagi aktyorlar ovozi juda ham o‘tkir bo‘lishi talab qilingan, ba’zi teatrlarda maxsus akustik ovoz kuchaytirgich moslamalaridan va ske-

nani chig‘anoq ko‘rinishida ishlash yordamida foydalanishgan. Bu antik teatr tomoshalarining ovoz sifatini ta‘minlab bergan. Ba‘zi yunon teatrlarida sodda mexanizmlar ham ishlatilgan. Ular yordamida ma‘budlar obrazining paydo bo‘lishi yoki ba‘zi aktyorlarning yer ostidan paydo bo‘lishi ta‘minlab berilgan. Ilk mashina ekkilema deb atalib, g‘ildirakli platforma ko‘rinishida bo‘lib, “qirol darvozasi” tomondan orxestraga sudrab borilgan. Bu “yirik plan”ning bir ko‘rinishi hisoblanib, skena ichida (uy, saroy yoki ibodatxonada) bo‘lib o‘tayotgan voqeaning shartli ko‘rinishi dekoratsiyasi hisoblangan.

Keyingi mashina eorema yoki mexane deb atalgan. Bu skenaning ichidan yuqori to‘sinlarga mustahkamlangan ko‘targich bo‘lib, skena ustidan u yoki bu personajning paydo bo‘lishiga xizmat qilgan. Komediyalarda bo‘lsa bu qurilma tragediyalarni parodiya qilish uchun ishlatilgan.

Uchinchi mashina distegiya deyilgan. Ichkari ko‘targich bo‘lib, u harakatdagi personajlarni skena ichidan ko‘rsatish uchun xizmat qilgan (oyna oldida, ayvonda).

Antik tomoshalarni tashkil qilish va aktyorlar shakllanishi. Teatrning ilk rivojlanish davrida harakatlanuvchi shaxslar 12 kishilik xordan iborat bo‘lgan, Sofokl davrida 15 kishidan iborat bo‘lgan. Komediya xorning tarkibi 24 kishidan iborat bo‘lib, ikki soat davom etgan. Xor partiyalarida spektakl g‘oyasi ochilgan. Xorning doimiy ishtiroki spektakl haraka-

ti bir kun ichida bo'lishi kerakligini talab qilar edi. Aynan mana shu g'oya 17-asr fransuz klassitsistlarining (1. Joy birligi; voqea bir joydan ikkinchi joyga ko'chganda ploshadka almashtirilmasdan amalga oshirilishi, sahnaning chegaralanishi, pyesadagi voqea bir joyda bo'lib o'tishi. 2. Vaqt birligi; pyesa voqeasi 24 soat ichida bo'lib o'tishi. Pyesa asosiy bitta syujetga asoslangan bo'lib, ikkinchi darajali syujetlar minimum darajada qisqartirilishi tushuniladi) joy birligi va vaqt birligi qonuniyatini yaratishiga turtki bo'lgan. Asta-sekin xor funksiyasi aktyorlarning soni ko'payishi hisobiga kamayib boradi. Dastavval aktyorlar sifatida dramaturglar faoliyat olib borgan, keyinchalik aktyorlik texnikasi va mahoratiga ega bo'lgan, hissiyotga individ yondoshadigan professional aktyorlar paydo bo'la boshlaydi. Ularni Dionis Ustalarlari deb atashgan. Spektakl sahnalashtirish qadimgi yunon davlatida siyosat darajasida turganligi tufayli aktyorlik kasbi juda ham obro'li, mas'uliyatli hisoblangan va bu kasbni faqatgina ozod shaxs egallay olgan. Birinchi rolni ijro etgan aktyorni protagonist, ikkinchi va uchunchi roldagi aktyorlarni devteragonist va tritagonist deb atashgan.


Protagonist o'z navbatida antreprenyer hisoblanib, aynan u qolgan ikki aktyorni chaqirish huquqiga ega bo'lgan. Esxilda xor asosiy rol o'ynagan bo'lib bitta aktyor sonini ikkita (devteragonist)ga ko'paytirgan, Sofokl xor qismini qisqartirib uchunchi aktyor (tri-

tagonist)ga ko‘paytiradi va natijada aktyorlar orasida diolog ko‘payishiga sazovor bo‘ladi. Shunday qilib, Qadimgi Yunon dramalari uchta aktyordan oshmas edi. Pyesada doimo uchta ko‘p obraz bo‘lganligi tufayli aktyorlar bir vaqtning o‘zida bir nechta personaj yaratishiga to‘g‘ri kelardi. Qadimgi Yunonistonda ayollarning siyosiy huquqi bo‘lmaganligi tufayli, barcha aktyorlar erkaklardan tashkil topgan. Ular kostyum va maska almashtirish yordamida spektakldagi obrazlarni yaratishadi. Keyinchalik ularga (gapirmaydigan shaxslar) statistlar qo‘shilishadi. Spektakl qahramonlari afsonaviy personajlar bo‘lishgan, ularning ulug‘vorligini ta’kidlash maqsadida bo‘yini baland qilib ko‘rsatishgan, bunda ularga (koturn) maxsus poshnali etiklar kiygizilgan, baland soch turmaklari to‘qilgan (shevelyur), qalin kiyim ostidan podkladlar kiygizilgan. Aktyorlar yuziga maxsus tipik ko‘rinish, qotib qolganlik hissini beruvchi maskalar taqilgan.





13-14-rasm. Antik teatri maskalari mil. avv. 500 yy.



15-rasm. Antik teatri maskalari mil. avv. 6-5-yy.



16-rasm. Antik teatri maskalari mil. avv. 6-5-asr.



17-18-rasm. Antik teatri maskalari mil. avv. 6-5-asr.

Turli vaziyatga qarab maskalar almashtirilgan. Maskalarning og‘iz qismi katta ochiq bo‘lgan, bu aktyorning ovozi to‘siqqa uchramasdan jaranglashiga xizmat qilgan. Komediya va satira dramasi janridagi spektakllarga ishlangan kostyum va maskalar tomoshabinlarda kuchli kulgu o‘yg‘otishi kerak bo‘lganligi uchun, xunuk va obrazning salbiy jihatlari bo‘rttirilgan holatda ishlangan. Erkak personajlari maskasi doim to‘q va o‘tkir

ranglarda bo'lgan, ayol personajlarining maskalari askincha yorqin va oq rangda bo'lgan. Maskalarda fe'l atvorning ko'rsatilishi ranglar bilan amalga oshirilgan, asabiylik to'q qizil rangda, ayyorlik malla rangda, kasallik sariq ranglarda ko'rsatilgan. Maskalarning maqsadi oxirgi qatorlarda o'tirgan tomoshabinlarga obraz xarakteri va bo'lib o'tayotgan voqealarning ma'nosini yetkazishdan iborat bo'lgan.

Tomosha avvalida hurmatli mehmonlar chiqish so'zlaridan keyin Dionis sharafiga qurbonlik keltirishgan. Shundan keyingina spektakllar fleyta jo'rligida xorchilar va korifeey (xor boshlig'i) asarning kirish qismini kuylab sahnaga kirishgan. Bizgacha yetib kelgan deyarli barcha tragediyalar prolog (muqaddima) bilan boshlanadi. Prologdan so'ng orxestruga xor kirib keladi va pyesaning oxiriga qadar bu yerdan jilmaydi. Xorning orxestruga shu chiqishi parod deb atalgan. Tragediya odatda 3-4 epizodiy va 3-4 stasimdan iborat bo'lgan.

Stasimlar bir-biridan keyin davom etuvchi strofa va antistrofalardan iborat bo'lgan. "Strofa" so'zi burilish ma'nosini anglatadi. Strofa va antistrofalar asosida qo'shiq aytilganda xor goh o'ng, goh so'l tomonga siljib, fikr-tuyg'uga hamohanglik holatini yaratib turgan. Mazmunan bir-biriga muvofiq strofa va antistrofa bir xil vaznda yozilishi, yangi mazmundagilari esa boshqa vaznda yozilishi kerak bo'lgan.

Xor qo'shiqlari sibizg'a (fleyta) jo'rligida ijro etilgan. Shuningdek, ular raqs jo'rligida ham aytilgan. Bunday fojeiy raqs emeleya deb atalgan.

Qadimgi Yunon teatri rivojlanishi jarayonida spektaklda aktyorlarning ijrosi ko‘payib, xorning hajmi kamayadi. Antik dramaturglarning dramatik shoir deb nomlanishiga sabab pyesa matni poetik tarzda yozilgan bo‘lgan.



19-rasm. Menandr komedik maskalar bilan. Barelef.
Qadimgi Yunon relyefidan olingan
Rim kopiyasi mil.avv 1-asr.




20-rasm. Barelef, mil. avv. 2-asr.

Antik drama strukturasi; kirish qismi toki xor chiqishigacha prolog, orxestroga chiqishda xorning birinchi kuylagan qo‘shig‘i parod (proxod), keyingi dialog episod, dramaning xulosa qismi eksod (isxod), xor orxestrodan chiqib ketish qismiga ajralgan. Xor Esxil ijodida asosiy o‘rinda bo‘lgan. Sofoklda ikkinchi darajali hisoblangan, Yevripid dramasida bo‘lsa xor qo‘shiqlari faqatgina aktlar oralig‘ida qo‘yilgan.

Afina dramaturgiyasining eng gullagan davri (mil. avv. 5-4-asrlar) uch buyuk muallif nomlari bilan bog‘liq. Esxil, Sofokl va psixologik dramalar otasi hisoblangan Yevripid. Ayni davrda komediya otasi Aris tofan ham o‘sha davr siyosiy hayoti va madaniyatini qattiq kulgu ostiga olib ijod qilgan.

Esxil (mil.avv 525-456-yillar) Esxilning ijodi Afina demokratik davlatining shakllanish davri bilan bog‘liq edi. Bu davlat mill.av. 500-449-yillar davomida qisqa-qisqa tanaffuslar bilan davom etgan yunon-eron urushlari davrida shakllandi.



21-rasm. Esxil (mil.avv 525-456-yillar)

Esxil Afinaga yaqin Elevsin degan shaharda oqsuyak xonadonida dunyoga kelgan. U Marafon va Salamin janglarida ishtirok etadi va bu voqealarni o'zining "Eroniylar" (mill.avv. 472-y.) tragediyasida hikoya qilib beradi. Esxil umrining so'ngida Sitsiliyaga keladi va shu yerda (Gele shahrida) dunyodan o'tadi.

Esxil 80 tacha tragediya va satirlar dramasini yozgan. Bizgacha 7 ta tragediyasi to'laligicha, boshqa asarlaridan kichik parchalar yetib kelgan.

Esxil tragediyalarida o'z davrining asosiy tamoyillari, urug'chilik tuzumining yemirilishi va Afina quldorlik demokratiyasining shakllanishi natijasida ijtimoiy va madaniy hayot sohasida yuz bergan o'zgarishlar o'z ifodasini topgan.

Esxil e'tiqodi mustahkam, dindor kishi bo'lgan. U, olamni boshqaruvchi odil kuch bor va har qanday mavjudot shu kuchning haq hukmiga bog'liq, bilib-bilmay qilingan gunohining xudolar tomonidan jazolanishi va adolatning qaror topishi muqarrar, deb tushungan. Intiqom muqarrarligi va adolatning qaror topishi g'oyasi Esxilning hamma tragediyalarida ko'zga tashlanib turadi.

Esxil taqdiri azal (Moyra)ga ishonib qaragan. Uning nazdida, hatto ma'budlar ham taqdir izmidan chiqolmaydi. Lekin ayni zamonda Afina demokratiyasi uning dunyoqarashiga ta'sir etmay qolmadi. Xususan, Esxil qahramonlari xudo irodasiga ko'r-ko'rona itoat etuvchi, mute mavjudotlar emas. Ular aql-zakovati o'tkir

va butkul o‘z xohishicha, mustaqil ravishda harakat qiladilar, hayotdan o‘z mavqelarini topish uchun kurash olib boradilar. Insonning o‘z a‘moli oldida axloqiy burchdorligi Esxil tragediyalarining bosh mavzularidandir.

Esxil o‘z tragediyalariga ikkinchi aktyorni olib kirdi va shu bilan fojeiy to‘qnashuvlarni ancha teran ishlash va xatti-harakat jihatlarini kuchaytirish imkoniga erishdi. Bu teatr san‘atida yuz bergan chinakam burilish nuqtasi edi: bittagina aktyor bilan xor ishtirok etuvchi eski tragediya o‘rniga sahnada o‘zaro olishuvlar orqali personajlarning fe‘l-atvori ochiladigan yangi xildagi tragediya paydo bo‘ladi.

Esxilning ilk tragediyalari (“Iltijogo‘ylar”, “Eroniy-lar”)da asosiy o‘rin xorga ajratilganidan dramatik to‘qnashuv o‘ta sust rivojlangan. Esxil asarlarining tizimi, qurilmasi ham tragediyaning diframb (tantanavor qo‘shiq – madhiya)dan kelib chiqqanligini ko‘rsatib turadi. Esxilning “Eroniylar” (mil.avv. 472-y.) tragediyasi uning ilk asarlari jumlasiga kiradi. Bu zamona voqealariga bag‘ishlangan va bizgacha saqlanib qolgan yagona asar hisoblanadi.

Esxil jamiyat rivoji tamoyillarini chuqur his etgan, o‘z zamonasi intilishlarini eng yorqin, to‘la ifodalagan dramaturg bo‘lgan.

Mil.avv. V asrning oxiriga kelganda, Esxil asarlari o‘sha davr kishilariga birmuncha eskirgan bo‘lib ko‘rinsa-da, lekin keyingi avlodlar uchun u birinchi

ulug' fojjanavis shoir bo'lib qoldi. Esxil ijodi jahon poeziyasi va dramaturgiyasi rivojiga sezilarli darajada ta'sir ko'rsatgan.

Sofokl (mil.avv 496-406-yillar) Sofokl qaramog'ida qurol-aslaha ustaxonasi bo'lgan davlatmand xonadonda tug'ilib, juda yaxshi bilim olgan



22-rasm. Sofokl (mil.avv 496-406-yillar)

Uning ijodiy layoqati yoshligidayoq namoyon bo'ladi: o'n olti yoshida Salamin zafarini madh etishga ixtisoslashgan o'smirlar xoriga rahbarlik qiladi. Sofokl yoshlik chog'ida o'z asarlarida o'zi rol o'ynab, zo'r muvaffaqiyatlar qozongan. Lekin keyinchalik, ovozi-ning xastalashuvi sababli rolda chiqmay qo'yadi. Sofokl mil. avv. 468-yilda birinchi bor Esxil ustidan g'alaba qozonadi. Umuman, dramaturg sifatida Sofoklga doimo omad yor bo'lib kelgan: deyarli hamisha birin-

chi o‘rinni va ba‘zan ikkinchi o‘rinni olib kelgan, u bi-ror marta ham uchinchi darajali mukofot olmagan.

Sofokl 120 dan ortiq tragediya yozgan, shulardan bizgacha 7 tasi yetib kelgan. Sofokl tragediyalari Es-xil tragediyalaridan o‘zgacha: Esxil asarlarida, asosan, xudolar qatnashadi. Sofokl tragediyalari esa bir qadar ko‘tarinki, dabdabador bo‘lsa-da, ularda odamlar qat-nashadi. Shu sababli Sofokl haqida tragediyani falak-dan zaminga olib tushgan sohibi qalam degan ta’bir yuradi. Sofokl asarlarida asosiy e’tibor insonga, uning ruhiy kechinmalariga qaratiladi. Lekin ayni paytda So-fokl pyesalarida xudolar bevosita ishtirok etmasa-da, qahramonlar taqdirining o‘zgarishida ularning ta’siri kuchli. Avvalo, Sofokl qahramonlari ham Esxil qah-ramonlari kabi irodasi mustahkam, o‘z maqsadi yo‘li-da ikkilanmay olg‘a intiluvchi shaxslardir. Ular o‘z maqsadlari yo‘lidagi kurashda halok bo‘lishlari yoki beqiyos azob-uqubatlarga duch kelishlari mumkin, lekin chekinish nima ekanini bilmaydilar; zotan, ular fuqarolik va axloqiy burchdorlik tuyg‘usi bilan harakat qiladilar.

Esxil singari Sofokl ham dindor kishi bo‘lgan, ma’budlarning kuch-qudratiga shak keltirmagan va sofistlarning ko‘pgina qoidalarini qabul qilmagan. Ma-salan, Protagorning, inson hamma narsaning andozasi, degan qoidasini u tan olmaydi. Aksincha, uning tragedi-yalarida inson bilimining cheklanganligi, shu bois un-ing xatoga yo‘l qo‘yishi va uqubatlarga giriftor bo‘lishi

muqarrarligi haqida tez-tez so‘z bo‘lib turadi. Ammo Sofokl insonni barcha jonzotlar ichida eng oliyjanobi deb biladi; Sofoklning fikricha, inson obrazining oliy fazilatlari uqubatlar jarayonida namoyon bo‘ladi. Qahramon qismat zarbidan halok bo‘lsa-da, uning tragediyalari hayotbaxshlik shukuhi bilan ko‘zga tashlanib turadi. “Taqdir uning qahramonini baxt va jondan judo etadi, lekin ruhini bukolmaydi, es-hushini olib qo‘yadi, biroq uni yengolmaydi”.

Sofoklning oliyhimmat qahramonlari fuqarolar jamoasi bilan bevosita bog‘liqlikda ko‘rinadi. Bu ular orqali Afinaning gullagan yillarida tarkib topgan har tomonlama komil shaxs ma’naviyatini ko‘z-ko‘z qilish demak edi. Shu bois Sofokl ni Afina demokratiyasining kuychisi deb ataydilar.

Yunon tragediyasi Sofokl ijodi bilan tugal mukammallik darajasiga ko‘tariladi. U dramaga uchunchi aktyorni olib kirdi, tragediyaning dialoglarga asoslangan qismi epizodiylarni ko‘paytirdi, xorning chiqishini kamaytirdi. Lekin Sofokl tragediyalarida xor ham muhim rol o‘ynaydi, hatto xor ishtirokchilari (xorevtlar)ning soni 15 kishigacha ko‘paytiriladi.

Sofokl ni alohida shaxslar taqdiri qiziqtirgani sababli u trilogiya yaratish qoidasidan voz kechadi. An’anaga ko‘ra Sofokl ham shoirlar musobaqasida uch asar bilan qatnashgan. Lekin ularning har biri alohida mustaqil asarlar bo‘lgan.

Sofoklning Fiva turkumiga oid rivoyatlar asosiga qurilgan asarlari uning eng mashhur tragediyalari hisoblanadi. “Antigona” (taxm. mil. avv. 442). “Shoh Edip” (taxm. mil. avv. 428). “Edip Kolonda” (Sofokl vafotidan so‘ng mil. avv. 401-y. qo‘yilgan) asarlari shular jumlasiga kiradi. Turli davrlarda yozilib namoyish etilgan bu tragediyalarning hammasi asosida Fiva podshosi Edip va taqdir taqozosi bilan uning avlodiga yopirilmish baxtsizliklar haqidagi rivoyatlar yotadi: Edip o‘zi bilmagan holda otasini o‘ldirib, onasiga uylanadi. Otaning o‘limi va ona bilan tutinmish nikoh “tarixi” oxiri ochiladi: Edip esa o‘z ko‘zini o‘yib oladi va yurtdan bosh olib chiqib ketadi. Rivoyatning shu qismi “Shoh Edip” asari mundarijasini belgilab bergan. Uzoq darbadarlik, azob-uqubatda gunohi to‘kilib, xudolar oldida yuzi yorug‘ bo‘lgan Edip Afinaning bir chetida – Kolonda osongina olamdan o‘tadi, jafokashning qabri Afina tuprog‘i uzra madad tayanchi bo‘lib qoladi. “Edip Kolonda” tragediyasida shu haqda hikoya qilingan.

Uchinchi – “Antigona” asari voqealari afsonaning xotima qismidan olingan. Bu yerda Edipning o‘g‘illari – Eteokl va Polinik orasida taxt uchun kurash yo‘lida sodir bo‘lgan ayanchli qotillik, har ikkovining yakka-ma-yakka olishuvda bir-birini o‘ldirishi va Polinikning singlisi Antigona tomonidan dafn etilishi haqida so‘z boradi.

Sofoklning eng mashhur asari – “Shoh Edip” tragediyasidir. Pyesada voqea Edipning o‘z otasini o‘ldirib, onasiga uylanishidan keyin talay vaqtlar o‘tgach boshalanadi. Qariyb 15 yilki, Edip Fivaga rahnamolik qilib kelmoqda. Uning to‘rtta farzandi: ikki o‘g‘il, ikki qizi bor. Ekin-tikinga, hayvonlarga, odamlarga yopirilgan so‘nggi dahshatli ofatga qadar podsholik tinch, osoyishta kechadi. Endi-chi, saroy oldi bosh kohin yetakchiligida fivaliklar olomoniga to‘la. Hammasining qo‘lida qo‘yning oq yungi himarilgan zaytun novdalari. Bu – najot, himoyaga muhtojlik ramzi. Edip olomonga peshvoz chiqar ekan, Apollon kohinidan xudolarning xohish-u karomatini bilmoq uchun qaynag‘asi Kreontni allaqachon Delfaga yuborganligini aytadi. Ayni shu chog‘da Kreont paydo bo‘ladi, u Xudolarning xohishi – Fivaning sobiq hukmdori – Layning hunini olish, buning uchun uning qotilini topib, badarg‘a qilish yoki “qonga qon bilan” javob berish lozimligini xabar qiladi. Edip Layning qotilini izlab topajagi haqida tantanali va‘da beradi. Shu yo‘sinda u o‘zi anglamagan holda, o‘ziga qarshi o‘zi tergov boshlaydi.

Shoir dahshatli haqiqatni yuksak mahorat bilan psixologik izchillik ruhida ochib bergan. Tergov-taftishlar davomida Edip tabiatiga xos muhim jihatlar ochila boradi. U ona shahrini balolardan asrab qolishga chog‘langan, o‘z vazifasining qanchalik mas‘uliyatli ekanini anglovchi oliyjanob inson va sohibi taxt sifatida namoyon bo‘ladi. Shu qatori qahr-g‘azabga beri-


lish, begunoh kishilarga o‘rinsiz ayblar qo‘yish ham (Kreont va Tiresiy bilan o‘tuvchi sahna) unga begona emas. Qidiruv chog‘ida, goho holatlar haqiqatni anglashni qiyinlashtirayotgan va tergovni chalg‘itayotgandek bo‘lib ko‘rindi. Masalan, korinflik xabarchi bilan o‘tuvchi sahnada Lay qotilini izlash muammosi Edip uchun ma‘lum lahzalar ikkinchi darajali bo‘lib qoladi: bu onlarda u o‘z qismatining xayrli o‘zgarayotganidan shod-hurram ko‘rinadi. Lekin saldan keyin, Korinf xabarchisining kelishi halokatli xotimaning yaqinlashuviga olib keladi. Edip bashoratning to‘g‘riligi va otasining qotili o‘zi ekanini anglaydi. Inson baloyi taqdiri azal (Moyra) deb atalmish samoviy kuchlarning o‘yinchog‘i yanglig‘ namoyon bo‘ladi.

Lekin inson qismatini avvaldan belgilovchi baloyi taqdiri azal pyesaning bosh mavzusi emas. Sofoklni taqdir izmidan chiqolmagan insonning mardonavor a‘moli qiziqtirgan. Edip dastlabki sahnalarda qanday oliyjanob va murosasiz kishi bo‘lsa, asarning oxirida ham shundayligicha qoladi. U jinoyatni beixtiyor sodir qiladi: u jinoyatning yuz bermasligi uchun ko‘p urunib ko‘radi. Shunday bo‘sa-da, u o‘z ustidan o‘zi hukm chiqaradi, o‘zini so‘qir bo‘lib, bir umr sarson-sargar-donlikda azob chekishga mahkum etadi. Shu ishi bilan u o‘z xalqini xudolar duoyibatidan xalos etadi.

Sofoklning so‘nggi – “Edip Kolonda” asari Edipning xudolar va odamlar tomonidan oqlanishi mavzusiga bag‘ishlangan.

Sofokl tragediyalari antik quldorlik demokratiyasi gullagan davrda uning fuqarolik va axloqiy tamoyillarining badiiy ifodasi tarzida dunyoga kelgan. Bu tamoyillar to'la huquqli barcha fuqarolarning siyosiy teng va erkin bo'lish, vatanga sidqidildan xizmat qilish, ota-bobolar udumiga ixlosmandlik, ruhan komilik talablarini anglatardi.

Yevripid (mil.avv 480-406-yillar) Afina quldorlik demokratiyasining tanazzuli oqibatida barcha an'anaviy tushuncha va qarashlarning barbod bo'lishi Sofoklning yosh zamondoshi Yevripid ijodida atroflicha aks ettirilgan.



23-rasm. Yevripid (mil.avv 480-406-yillar)

Yevripid davlatmand xonadonda tug'ilgan, zero, yoshligidan yaxshigina tahsil olgan.

Yevripiddan bizgacha 18 ta drama (u jami bo‘lib 75 tadan 92 tagacha asar yozgan), boshqa asarlaridan birtalay parchalar yetib kelgan.

Yevripid asarlari Esxil va Sofokl asarlaridan tubdan farqlanib turadi. Yevripid qahramonlarni hayotga monand tarzda ko‘rsatadi: Aristotelning guvohlik berishicha, u odamlar “qanday bo‘lsa, ularni shunday ko‘rsatgan”. Uning tragediyalarida ham qahramonlar Esxil va Sofoklning asarlaridagi kabi rivoyatlar bilan bog‘liq bo‘lib, zamondoshlarining fikr-tuyg‘ulari bilan yo‘g‘rilgan holda ko‘rinadi. Uning ba‘zi pyesalarida xalqni aldab hokimiyatni qo‘lga kiritgan va undan o‘zining shaxsiy manfaati yo‘lida foydalangan safstabozlarga qarshi kurash ochish hollari uchraydi. Yana boshqa asarlarida istibdodni ayovsiz fosh etadi; bir kishining boshqa birovlar ustidan hukmronligi shoir tomonidan inson erkini, fuqarolik tartibotini oyoq osti qilish deb baholanadi. Adib faqat istibdodga qarshi chiqib qolmay, balki odamlarni kelib chiqishiga qarab farqlash mumkin emasligi haqida ham so‘z yuritadi. Yevripid san’atkor sifatida insonning ruhiy kechinmalari olamiga Sofokldan ham chuqurroq (“Ifigeniya Avlidada” asarlaridagi Ifigeniya obrazi bunga yaqqol misol-dir) kira olgan. Shu bilan birga u tuban insoniy ehtirolari yoki bir kishida sodir bo‘luvchi bir-biriga zid intilishlar to‘qnashuvini aks ettirishdan cho‘chimaydi.

Aristotel Yevropidni barcha yunon fojjanavislari orasida “eng fojeiy shoir” deb atab, buni qahramonlar-

ning keskin to‘qnashuvlarda namoyon bo‘lishi bilan-gina emas (unga qadar Sofokl va Esxil allaqachon bu usulni qo‘llagan), shuningdek, qahramonlarning ichki o‘ta ziddiyatli olami tasvirlanishi bilan ham izohlagan. Yevripid asarlarida, ayniqsa, xotin-qizlar obrazlari hayajonli va ifodali. Zotan, u odilona ravishda ayol qal-bining benazir bilimdoni deb tan olingan.

Yevripid asarlarida fojeiy to‘qnashuvlar kishilarning o‘zaro shaxsiy munosabatlari orqali ro‘y beradi; ular-ning tili oddiy, jo‘n; dramaturg o‘z pyesalariga ko‘plab maishiy lavhalarni, avvallari xor yoki biror personaj orqali ma’lum qilinadigan lavhalarni ham olib kirgan. Xususan, o‘lim, xastalik, jismoniy azob sahnalari, ma’shuqa qizlarning kechmishlari, bolalarni sahnaga chiqarish kabilar shular jumlasidandir.

“Medeya” tragediyasi (mil. avv. 431) Yevripidning eng mashhur asarlaridan biri sanaladi. Muallif bu asar syujetini argonavtlar haqidagi afsonalar turkumidan olgan. Afsonaga ko‘ra, yunonlar Yason boshchiligida “Argo” degan sehrli kemada Kolxidaga yo‘l oladilar. Yason o‘z amakisi shoh Peliyning buyrug‘iga ko‘ra shu eldan oltin junli qo‘y terisini qo‘lga kiritishi va Yunonistonga olib kelishi kerak. Bu terini qo‘lga kiritishda Yasonga, unga oshig‘-u beqaror bo‘lib qolgan Kolxida podshosining qizi, sehrgar Medeya yordam ko‘rsatadi va bu yo‘lda talay jinoyatlarga ham qo‘l uradi. Argo-navtlar Yunonistonga qaytib keladilar. Lekin Peliyning o‘g‘li Yason bilan Medeyani haydab yuboradi. Ona

shahridan quvilgan Yason va Medeya Korinfdan panoh topib, bir necha yil birga yashaydilar. Ikki o'g'il ko'rishadi, lekin shu orada Yason Medeyani tashlab, Korinf podshosi Kreontning qizi bilan nikohga kiradi.

Yevripidning oilaviy, axloqiy masalalar mavzuida yozilgan tragediyalari orasida "Ifigeniya Avlidada" asari jo'shqin fuqarolik tuyg'ulariga to'laligi bilan ajralib turadi.

"Ifigeniya Avlidada" tragediyasi Yevripid vafot etgandan keyin, mil. avv. 404-y. sahnaga qo'yilgan. Pyessa asosida tangri xohishi yo'lida qurbon etilmish Agamemnonning qizi Ifigeniya haqidagi afsona yotadi.


Yevripid ko'zi ochiqligi chog'ida, yuqorida aytilganidek, alohida muvaffaqiyat qozona olmadi. Uning hayotni bezamay, borligicha ko'rsatish hamda afsonalar va diniy udumlarga nisbatan bepisandlik bilan munosabatda bo'lishi afinaliklarga ma'qul tushmaydi. Ular Yevripid asarlariga, tragediya an'anaviy belgilarining buzilishi, deb qaradilar. Lekin tomoshabinlarning birmuncha bilimdon qismi Yevripid asarlarini zo'r qiziqish bilan qarshi olgan, bir qator zamondosh fojjanavislar (masalan, Agafon) uning ochgan yo'lidan borganlar.

Yevripidga shon-shuhrat uning o'limidan keyin kelgan. Mil. avv. IV asrga kelganda, uni eng ulug' fojeiy shoir deb ataydilar va bu ta'bir antik olamning oxiriga qadar o'z kuchini yo'qotmaydi. Buning sababi shundaki, aynan Yevripid tragediyalari keyingi davr tomoshabinlarining did va talablariga mos bo'lib tushdi.

Yevripid yunon mumtoz fojjanavisligi rivojiga yakun yasadi. Fojjanavislikning eng “fojeiy shoiri” ijodi bilan yunon dramasi kuchli ehtiroslar fojiasi va maishiy ruhdagi dramadan iborat ikki yo‘nalish rivojiga yo‘l ochiladi.

Yevripiddan keyin qadimgi yunon fojjanavisligi sohasida biron bir yuqori qimmatli asar yaratilmadi. Tragediya asta-sekin o‘qish uchun mo‘ljallangan sof adabiy shaklni egalladi. Lekin maishiy drama tez oyoqqa turib, mil. avv. IV asrning o‘rtasida yangi Attika komediyasi nomi bilan keng ko‘lamda rivojlanish yo‘liga kirdi.

Aristofan (taxminan mil. avv. 446-380-yillar)
Aristofan – qadimiy komediyaning pyesalari bizgacha yetib kelgan yakka-yu yagona namoyandasidir. Boshqa dramaturglarning komediyalaridan ba’zi parchalar-gina saqlanib qolgan, xolos.



24-rasm. Aristofan (taxminan mil.avv 446-380-yillar)

Aristofanning ota-onalari erkin fuqarolar bo‘lib yashashgan, lekin, aftidan, unchalik davlatmand bo‘lishmagan. Aristofan juda erta yoza boshlaydi. Uning birinchi pyesasi mil. avv. 427-yilda qo‘yilib, ikkinchi darajali mukofotga sazovor bo‘lgan. Aristofan teatr faoliyatining boshlanishidanoq yurtdoshlarining zukko namoyandasi tarzida ko‘rinib, doimo ularning dard-tashvishi bilan yashagan. Aristofanning komediyalari o‘zining hajviy o‘tkirligi bilan hozirda ham kishilarni hayratga solib keladi.

Aristofan 40 dan ortiq komediya yaratgan bo‘lib, bizgacha 11 tasi yetib kelgan.

Aristofan o‘z pyesalarini antik quldorlik demokratiyasi tanazzulga uchragan davrda yaratgan edi. Jamiyatda mansabdor shaxslarning poraxo‘rligi, davlat mulkini o‘g‘irlash, sotqinlik, riyokorlik kabi xunuk hodisalar avj olib borardi. Siyosiy hayotning salbiy jihatlarini hajv ostiga olish Afina tomoshabinlarining ayni muddaosi edi.

Aristofan urushni keskin qoralab, tinchlik yo‘lida fidoyilik ko‘rsatdi. Bu faqat Attika dehqonlari manfaatini himoya qilishni anglatmas edi. Dramaturg urushdan ko‘proq jabr-jafo ko‘rgan dehqonning dardi haqida so‘z ochish bilan butun Yunonistonning taqdiri masalasini olg‘a suradi. “Lisistrata” komediyasida, masalan, ellinlarning o‘zini o‘zi qatl qilish bilan Elladani Eronning ko‘z o‘ngida zaiflashtirishdan boshqa narsa emas, degan fikrni olg‘a surgan. Bundan tashqari, shoir

urushning oqibati o‘laroq tug‘ilmish oddiy insoniy jarohatlar haqida alam-iztirob bilan hikoya qiladi.

Qadimgi Attika komediyasi xalq teatri shakllari bilan chambarchas bog‘liq bo‘lgan. Aristofan ijodida ham bu hol yaqqol ko‘zga tashlanib turadi: uning qahramonlari biron bir insoniy xususiyatga asoslangan bo‘lib, bu xususiyatni u quyuqlashtirib, bo‘rttirilgan holatida ko‘rsatadi. Aristofan komediyalari bufonada unsurlariga juda boy. Bu komediyalar aktyor ijrochiligida ham, tabiiyki, bo‘rttirish, masxaralash omillari bilan to‘ldirishni talab etganki, shundan ular tomoshabinlarning qizg‘in qahqahasiga sabab bo‘lgan. Bulardan tashqari, personajlarni ba‘zan serfayz va g‘ayriodatiy holatlarga olib kirish ham kulgi manbayi bo‘lib kelgan. Masalan, “Bulut” komediyasida “olam-shumul muammolar” ustida bosh qotirish niyatida, Sokratning shiftga osib qo‘yilgan savatga chiqib o‘tirishi xuddi shunday holatlardandir. Bu kabi lavhalar tomoshaviylik nuqtayi nazaridan ham o‘ta jozibalidir.

Tragediya kabi komediya ham voqeadan qisqacha darak beruvchi prologdan boshlangan. Prologdan so‘ng parod, ya‘ni orxestrage chiqqan xorning kirish qo‘shig‘i aytilgan. Komediya xor 24 kishidan iborat bo‘lib, har biri 12 kishilik ikki poluxoriyaga bo‘lingan. Xorning kirish qo‘shig‘idan so‘ng episodiy boshlanib, goh xor qo‘shig‘iga omuxtalashib, goh mustaqil tarzda namoyon etilgan. Komediyaning eng cho‘qqisi episodiy tarkibiga kiruvchi olishuv **agon**, ya‘ni dahana-

ki jang ifoda vositasi bilan bog‘liq. Ikki raqib orasida yuz beruvchi bu murosasiz olishuv gohi mushtlashishga o‘tib ketardi. Komediya asosida yotuvchi konflikt agonda eng yuqori darajaga yetardi.

Yunon komediyasida xorning chiqishlari orasida **parabaza** (murojaat) deb ataluvchi chiqish alohida ahamiyatga ega. Parabaza chog‘ida xor ishtirokchilari niqoblarini qo‘lga olar, bir necha qadam olg‘a siljir va bevosita tomoshabinga qarata murojaat qilardi. Parabazaning komediya voqeasiga bog‘liqligi shart bo‘lmagan. Unda **korifey** (peshtalqin) dramaturgning xizmatlarini ta’riflar yoki muallif nomidan biror voqea xususida so‘z yuritar edi.

Komediyaning so‘nggi qismi tragediyadagi kabi eksod deb atalgan: ko‘rinish tugagach, xor orxestrani tark etib, eksodni ijro qilgan. Komediya xor qo‘shiqlari odatda jo‘shqin va serzavq raqslar jo‘rligida aytilgan.

Mil. avv. 424-yili qo‘yilgan “Suvoriylar” (afina qo‘shinlarining aslzoda qismini suvoriylar tashkil etgan) Aristofanning eng ko‘zga ko‘ringan siyosiy komediyasi hisoblanadi. Aristofan pyesada Peleponnee urushi davrida demokratik tartibotning oyoq osti qilinishiga qarshi bosh ko‘tarib chiqqan. Unda dramaturgga zamondosh taniqli shaxslar, avvalo, Afina demokratiyasi so‘l guruhining rahbari Kleon Ko‘nchi laqabi ostida ko‘rsatilgan.

“Tinchlik” komediyasi Afina bilan Sparta orasida sulh tuzish haqida muzokara borayotgan paytda mil.

avv. 421-yili Ulug‘ Dionisiy bayramida qo‘yilgan. Bu asarning ko‘rsatilishi 421-yil bahorida muvaffaqiyatli tugagan muzokaraning yakunlanishiga o‘z ta’sirini ko‘rsatgan bo‘lsa ajab emas.

Aristofan o‘zining boshqa asarlarida, xususan, “Axarnliklar” (mil. avv. 425), “Lisistrata” (mil. avv. 411) komediyalarida ham tinchlik mavzuini tahlil etgan. Bu ikkala asarda ham Peleponnes urushi qoralanib, tinchlik madh etilgan.

Aristofanning ba’zi asarlarida fojjanavis shoirlar, avvalo, Yevripid va Agafon keskin tanqid ostiga olingan. “Qurbaqalar” (mil. avv. 405) komediyasi shunday asarlardan edi.

Aristofan komediyalari g‘oyaviy mazmuni jihatidan ham, sahnaviy shakli bilan ham ajralib turadi. Aristofan bir vaqtning o‘zida qadimgi Attika komediyasining ham eng yuqori cho‘qqisini, ham xotimasini belgilab berdi.

Antik teatrining Oltin asri uzoq cho‘zilmadi. Mil. avv. 5-asrda gullab-yashnagan testr san’ati, ellinizim asri mil.avv 4-asrga kelib zaiflasha boshladi. Tragediya janri inqirozga yuz tuta boshlagan bo‘lsa, qadimgi attik komediya bu davrga kelib o‘rta va yangi komediyalarga (Filemon va Dafil asarlari) o‘rnini bo‘shatib berdi. Ularning asarlari haqida rim yozuvchilari Terensiya va Plavta o‘z asarlarida eslab o‘tishgan. Ellinizm davri-ning eng taniqli komediyanavisi Menandr (Diskol Ugryumets, Tretey sudi, Kesilgan soch o‘rami) bo‘ldi.

Yangi komediyaning o'ziga xosligi shunda bo'ldiki, asarda jamoat ishlariga qiziqish yo'qolib, faqatgina shaxsning hayoti to'g'risida yozila boshlandi. Bu davrda teatrdan tashqari ko'cha tomoshalariga ixtisoslashgan komedik truppalar fliak va mimlar paydo bo'ldi. Ular ko'p holatda primitiv bo'lgan, asosan beparda syujetga ega tomoshalarni uyushtirishgan.

Naqlga ko'ra, Fespid o'z tragediyalarida faqat o'zi chiqqan yakka aktyor bo'lgan ekan. Esxil ikkinchi (*devteragonist*), uning yosh zamondoshi Sofokl uchinchi (*tritagonist*) aktyorni kiritganlar. Lekin hamma vaqt asosiy rollarni *protagonist* - birinchi aktyor o'ynab kelgan.

Yunon teatri xalqning eng sevimli bayrami - Dionis marosimi bilan bog'liq bo'lgani uchun ham Yunonistonda, ayniqsa quldorlik demokratiyasi gullagan davrda aktyorlar yuqori ijtimoiy mavqega ega bo'lib kelganlar. Yunon qavmiga mansub kishigina aktyor bo'la olgan. V-IV asrlarda aktyorlar dramaturglar qatori polis ijtimoiy hayotida faol ishtirok etib keldilar. Ular Afina yuqori davlat lovozimlariga saylanar va elchilar tariqasida o'zga mamlakatlarga ham yuborilar edi.

Teatr musobaqalarida dastlabki paytda faqat xoreg va dramaturglar ishtirok etgan. Miloddan avvalgi V asr o'rtalaridan boshlab, musobaqalarda aktyor-protagonistlar ham ishtirok eta boshlagan.

Yunon dramasida aktyorning soni uch kishidan oshmaganligi vajidan, pyesa davomida bir aktyorga bir necha rol o'ynashga to'g'ri kelgan.

Xotin-qizlar rollarini ham erkaklar o'ynagan. Aktyor o'rinlatib she'r o'qish, ashula aytish layoqatiga ega bo'lishi shart edi.

Aktyorlar niqob kiyib o'ynaganlar, binobarin, mimikadan foydalanishga o'rin qolmagan. Harakat va jest san'ati ustida ishlashning zarurligi shu bilan ham belgilangan.


Fojeiy xor tarkibi dastavval 12 kishidan iborat bo'lib, keyinroq 15 kishigacha yetgan. Komediya xor hami-sha 24 kishidan iborat bo'lgan. Xor qatnashchisi xorevt, xor boshlig'i korifey deb atalgan. Xor orxestriga sibizg'achi (fleytachi) yetakchiligida kirib kelar, tomosha mehrob zinasiga ko'tarilgan sibizg'achining sehrli ohanglari ostida boshlanar edi.

Teatr tomoshalari, yuqorida ta'kidlanganidek, Dionisiy umumxalq bayramlari vaqtida o'tkazilgan. Bu davrda barcha yumushlar to'xtatilar edi. Bayram kunlarida qozixonalar yopib qo'yilar, qarzdorlar qarz to'lashdan ozod etilar edi. Umumiyat bayramidan bebahra qoldirmaslik uchun hatto hibsga tushganlar ham turmadan bo'shatilgan: erkaklar qatori xotin-qizlar, bolalar va hatto malaylar ham teatrga kelishgan. Teatrga kirish biroz pulli bo'lib, bino qaroviga sarflanuvchi xarajatlar shu hisobdan qoplab kelingan.

Afinada teatr musobaqalari ertalabdan boshlanib, to shomga qadar davom etar edi. Tomoshabinlar oziq-ovqatlarini teatrning o'zida yeb-ichganlar. Hamma bayram libosi kiyar, gulchambarlar taqar, yasan-tu-

san bo‘lib kelar edi. Ulug‘ Dionisiy mavridiga juda ko‘p fuqarolar yig‘ilar, boshqa shahar-davlatlardan, butun Yunonistondan kelgan kishilar qatnashardi.

Aristotelning “Poetika” risolasi. Aristotel (mil. avv. 384-322) antik olamning yirik mutafakkirlaridan, faylasuf – qomuschi, Aleksandr Makedonskiyning us-tozi bo‘lgan. U umrining ko‘p qismini Afinada o‘tkaz-gan.



25-rasm. Aristotel (mil. avv. 384-322)

Aristotel tabiiy fanlar, falsafa, tarix, huquq, axloq, tibbiyot va boshqa sohalar bo‘yicha risolalar yaratgan. Adabiyot va teatr tarixi bobida uning “Poetika” asari eng ahamiyatlisidir.

“Poetika” to‘laligicha saqlanmagan. Uning san’at-ning estetik ahamiyati, estetik idrok etishning mohi-

yati, ba'zi san'at turlarining o'ziga xos xususiyatlari haqida so'z boruvchi birinchi qismigina bizgacha yetib kelgan.

Aristotelning fikricha, san'atning tub mohiyati hayotiy borliqni haqqoniy aks ettirishdan iborat. Aynan shu sababdan ham san'at bilish va estetik zavq berish qimmatiga ega. San'at voqelikni gavdalantiribgina qolmay, uni badiiy tarzda tushuntirib ham beradi. Aristotelning fikricha, san'atda kishilar hayotidan olingan turli voqealargina emas, shuningdek, yuz berishi mumkin bo'lgan voqealar ham aks ettiriladi. Zotan, shoir tarixchidan farqli ravishda voqealar sharhchisi emas, balki voqelikni badiiy umumlashtiruvchi mutafakkirdir.

Risolada Aristotel jiddiy poeziyaning asosiy janri deb hisoblagan tragediya haqidagi ta'lim yetakchi o'rin tutadi. Aristotelning fikricha, "tragediya muayyan hajmli, turli qismlari til yordamida turlicha sayqallangan bayonot vositasida emas, balki xatti-harakat orqali gavdalantiriladigan achinish va qo'rquv bilan inson ruhini poklovchi muhim va tugal voqea tasviridir".

Aristotel tragediya olti tarkibiy qismdan iborat bo'lishi kerak, deb hisoblaydi. Bular:

- fabula (voqea)
- sajiyalar (xarakterlar)
- fikrlar
- so'z ifodasi
- musiqa qismi
- sahnaviy shart-sharoit.

O‘z ahamiyati jihatidan bu qismlar bir xil qimmatga ega emas. Aristotel fabulaning tarkibiy birligi masalasini birinchi o‘ringa qo‘ygan. Fabula tug‘al, yaxlit va ma’lum hajmga ega bo‘lishi kerak.

Aristotel voqea yaxlitligiga erishish yo‘li haqida so‘z yuritib, xatti-harakat birligi qoidasini olg‘a surgan: xatti-harakat esa bir voqea yoki bir personajning taqdiri bilan bevosita bog‘liq va har qanday tasodif, ikir-chikir narsalardan xoli bo‘lishi lozim.

Aristotel ikki xil, ya’ni “oddiy” va “murakkab” fabula turini farqlash lozimligini uqtiradi. Iztirob chekish har ikki holat uchun zaruriy unsur hisoblanadi. Oddiy fabulali tragediyada xatti-harakat tasodiflarsiz, bir maromda rivojlanib boradi. Murakkab fabula asosini esa keskin brinish (peripetiya) va bilib olish (noma’lum narsaning ma’lum bo‘lishi) usuli tashkil etadi. Aristotel murakkab fabula turini afzal ko‘radi.

Aristotel sajiya (xarakter)larning qat’iy, haqqoniy va izchil bo‘lishini uqtiradi. Tragediya qahramoni badxulqli kimsa emas, xushxulqli, saodatmand kishi bo‘lmog‘i kerak, shunda uning dilini qoplovchi iztirob va g‘ulg‘ula undagi jinoyat yoki qusurning natijasi bo‘lmay, balki tasodif natijasi sifatida tug‘iladi.

Ta’kidlab o‘tilganidek, Aristotelning fikricha, tragediyaning maqsad-mohiyati odamlarning dilida achi-nish va qo‘rquv uyg‘otish bilan “inson ruhini poklash”, tomoshabinlar qalbida katarsis holatini hosil etishdan iborat.

Katarsis (qadimgi yunon tilidan, baland, poklanish, tuzalish ma'nosini anglatadi) san'at asarlari va ahloq qoidalari yordamida, insonning achinish va ta'sirlanishi, qalbning poklanishini anglatadi.

Antik falsafada bu termin – insonning turli faktlar yordamida ma'naviy poklanishi, yengil tortishi, tozalanishi kabi ma'noni anglatgan;

Qadimgi Yunon estetikasida, san'at turlari insonning estetik didiga ta'sir ko'rsatishi kerak deb hisoblangan. Katarsis terminini turli talqinda, diniy ahamiyat orqali qaralganda kechinma orqali ruhning tozalanishi; etik tomondan qaralganda, inson ongi yordamida hissiyotlarining ma'naviy fazilatlarini oshishi; fiziologik tomondan – kuchli hissiy zo'riqishdan keyingi yengillik; hamda meditsina bilan bog'liq yengil tortish, qutilish ma'nolarini anglatgan.

Aristotel ushbu terminni tragediyaga nisbatan qo'llaganda – tragediya janri tomoshabinda bo'layotgan voqea-hodisalar, qahramonlar taqdiriga nisbatan kuchli kechinma, achinish va qo'rquv hissinini uyg'otib, shu yordamida uni tarbiya qilish, qalbini poklash bilan bog'lagan.

Zamonaviy psixologiyada (jumladan psixanaliz, psixodrama, simvoldramalarda) katarsis jamoaviy psixik energiya, qo'rquvlarni so'ndirish, konfliktlarni o'rganish natijasida o'zlikni anglash, o'zlikni tushunish kabilarni anglatadi.

Tragediya sahna san'atining ta'sir kuchi bilan tomoshabinlar dilida rahm-shafqat va qo'rquv hislarini

uygʻotadi, ularning ruhiy tinchini buzib, bu sezgilarni behad keskinlashtiradi, soʻng insonga yengillik, orom baxsh etib, uni koʻngil gʻulgʻulalaridan musaffo etadi.

“Poetika” haqida soʻz borganda, Abu Nasr al Forobiy (873—950)ning “Shoirlar sanʼati qonunlari” risolasini eslamay oʻtib boʻlmaydi. “Muallimi soniy” (Aristoteldan keyin “ikkinchi muallim”) nomini olgan bu ulugʻ alloma yunon faylasufi estetik qarashlarini shu qadar teran ilmiy sharhlab berdiki, bu hamon oʻz qiymatini saqlab keladi.

Antik davr bizning kungacha adabiyot va sanʼatda oʻzining katta hissasini qoldirdi. Antik meʼmorchiligi, haykaltaroshligi va teatr sanʼati keyingi davrlarga ham oʻzining taʼsirini oʻtkazib keldi. Uygʻonish davriga kelib birinchi adabiy tragediya va komediyalar antik dramaturglar yaratgan pyesalar asosida paydo boʻldi. Keyinchalik Gʻarbiy Yevropa dramaturglari ham bir necha bor antik teatr anʼanalariga murojaat etishini koʻrishimiz mumkin.

Maʼrifatparvarlik davrida antik adabiyot va teatr sanʼati kultlari Yevropa mamlakatlari orasida yorqin talqin etiladi. Antik sanʼatdan ilhomlangan Germaniyalik Lessing (1729–1781), Gyote (1749–1832) va Shiller (1759–1805) kabi buyuk dramaturg va yozuvchilarni aytib oʻtishimiz mumkin. Lessing oʻz dramalarining nazariyasini yaratishda Aristotelning “Poetika” risolasini hamda antik davr tragediya va komediyalarini chuqur oʻrganadi. Shiller antik davr adabiyotidan na-

faqat syujetlarga, balki xordan ham foydalanib “Messin kelini” dramasini yozgan. Gyote ham katta qiziqish bilan yunon adabiyoti to‘g‘risidagi ilmni kuzatib borgan. Uning “Ifigeniya va Tavrid” dramasi (1779–1786) Yevripidning yaratgan syujeti asosida yozilgan asar hisoblangan. Pushkin va uning tengdoshlari ham o‘z asarlarida ko‘p marotaba antik davr syujetlariga murojaat etgan. Pushkin bu to‘g‘risida “har bir ma‘rifatli inson Buyuk Qadimgi davrning o‘lmas asarlarini tushunib yetmog‘i kerak” deydi. V.G.Belinskiy Qadimgi Yunon adabiyoti va san’atining dunyoga ta’sirini takidlash maqsadida, o‘z asarlarida ko‘p marotaba Gomer-ning va mil.avv 5 asr yunon tragediyanavislarning asarlariga murojaat etadi.

XULOSA

Antik davrda teatr san'ati madaniy va siyosiy tomonlarni ahamiyatli edi. Dramaturglar o'z asarlarida o'sha davr muammolarini yoritishga intilishgan. Siyosat, din, falsafa, adabiyot bilan bog'liq bo'lgan turli xil savollar ko'tarilar edi. Zamonning ijtimoiy-siyosiy hayoti bilan bog'liqlik, insonga, uning ma'naviy yetukligiga diqqat-e'tibor, yunon eposi va lirikasining eng yaxshi yutuqlaridan foydalanish – bularning hammasi Afina teatrining ulug'vor g'oyalar va ajib badiiy shakllari bo'lishini belgilab berdi. Zo'rlik va zulmning har qanday ko'rinishiga qarshi norozilik, el-yurtni jo'shqin sevish, fuqarolik va insonparvarlik e'tiqodlarini ulug'lash singari g'oyalar taraqqiyparvar insoniyatga uning tarixida hamma zamonlarda hamroh va tushunarli bo'lib kelgan. Asar syujetlari afsonalar asosida yaratilgan bo'lsa-da, antik teatr dramalari ko'targan muammolar aholi uchun muhim hisoblangan. Shu boisdan ham antik drama qahramonlarining kurashlari, g'am-anduhlari hozirgi tomoshabinlarni ham hayajonga solib keladi.

Bir soʻz bilan aytganda, antik teatr sanʼati butun dunyo uchun zamonaviy teatr rivoji va faoliyatini belgilab berganligi tufayli, juda muhim madaniy meʼros hisoblanadi. Shunday qilib, xorijiy teatr va uning saboqlari bir jihatdan boʻlgʻusi sanʼat kishilarining maʼnaviy komil shaxslar boʻlib yetishiga yordam bersa, yana boshqa jihatdan ularning kasbiy takomiliga naf keltiradi. Insoniyat yaratgan buyuk sanʼat obidalarining mazmun-mohiyatini anglash va ushbu sanʼat obidalarini insoniyatning oʻziga xizmat qildirishga qaratilgan xorijiy teatr tarixini oʻrganishdan koʻzlangan bosh maqsad ham shundadir.

NAZORAT SAVOLLARI

Qadimgi yunon teatrida uchragan teatron, orxestra, skena nima va ulardan qanday maqsadda qo'llanilgan?

2. Teatr san'ati qaysi aqida sabab paydo bo'lgan?

3. Sofoklning islohotlari tufayli qadimgi yunon tragediyasi qanday yangi sahnaviylik sifatlariga ega bo'ldi?

4. Antik teatr dekoratsiyasi haqida nimalarni bilasiz?

5. Katarsis terminini izohlab bering?

6. Aristotel ta'biricha, tragediya bu nima?

7. Tragediya qahramoni nega badxulqli emas, xushxulqli va saodatmand bo'lishi kerak?

8. Xatti-harakat birligi deganda nima tushuniladi?

9. Kult deganda nima tushuniladi?

10. Protagonist, devteragonist va tritagonistlar kimlar?

GLOSSARIY

O'zbekcha	Ruscha	Inglizcha	Atamaning izohi
Avanssena	Авансцена	avant-scene-	Sahnaning old qismi, parda bilan orkestr o'rnini oralig'idagi joy. Opera va balet, shuningdek, drama tomoshalarida parda oldida o'tadigan dekoratsiyasiz kichik sahnalarni ko'rsatish uchun xizmat qiladi.
Aktyor	Актёр	Actor	drama, opera, balet, qo'g'irchoq teatri, tsirk, teatr, kino, radio (inszenirovka, postanovka, montaj) va televidenieda rollar ijro etuvchi shaxs, artist.
Aktyorning jismoniy erkinligi	Физическая свобода актёра	Actor's physical freedom	O'zi ijro etayotgan rol uchun aniq xatti-harakat topishga ko'maklashadi.
Aktrisa	Актриса	Actress	aktyor ayol.

Aktyorlik mahorati	Актёрское мастерство	acting technique	boshqa davr va muhitdagi obrazni aktyorning o'z ruhiy-jismoniy apparati orqali jonlantirish qobiliyati.
Allegoriya	Аллегория	allēgoria	mavhum tushunchalarning asosiy tomonlarini aniq obraz shaklida yorqin namoyon qiluvchi badiiy tasvir usuli. Masalan: tulki - ayyorlik.
Amplua	Амплуа	frans. emploi	aktyorning shaxsiy imkoniyati va sahnadagi ijrochilik qobiliyatiga juda mos tushadigan rollar tipi. Masalan: tragik, komik rollar va h.k.
Ansaml (yaxlitlik)	Ансамбль	frans. ensemble	spektakldagi oliy maqsadni ro'yobga chiqarish yo'lida aktyorlar va boshqa ijodkorlarning badiiy ijodiy yaxlitligi. Bu ijodiy birlik badiiy asarning etakchi xatti - harakatini va oliy maqsadini amalga oshirishda xizmat qiladi.

Berilgan shart – sharoitga ishonch	Доверие данной возможности	reliance give facility	bu aktyorning spektakl yoki suratga tushirish maydonida to‘qib chiqaruvchanlik, badiha (improvizatsiya) qila oladigan ijodiy qobiliyati. Berilgan shart - sharoitda hayotdagi badiiy obrazda yashay olish, fikrlash, tabiiy xatti-harakat qilish salohiyati. Berilgan shart-sharoitga ishonish - xotirada saqlanib qolgan hissiyotlar ta’sirida xatti-harakat qilishdir. Hissiy xotira yordamida berilgan shart - sharoitga ishonish aktyor qobiliyati va iqtidorining mezonidir.
Botiniy sezgi	Внутренние чувства	passivity feelings	sahnaviy hayot jarayonida aktyorning o‘z partnori, buyumlar, tabiat xodisalari, voqealari, o‘zini qurshab turgan muhit va anjomlarni fikriy his etish, hayolan ko‘z oldiga keltirishlik. “Gapni sahnadoshning qulog‘iga emas, ko‘ziga gapirish kerak”, degan edi Stanislavskiy. E.B. Vaxtangov esa, bu fikrga yanada aniqlik kiritib shunday degan: “Berilgan narsani ko‘rish va talab qilingan darajada munosabat bildirish kerak”. Bu degani - yo‘q narsalarni ko‘rish kerak degani emas.

Бадига- го'улик (im- provizatsiya)	Импровизация	frans. improvisa- tion	aktyor o'z nomidan obrazni erkin talqin qilishi.
Butafor	Бутафор	property man	turli butaforiya buyumlarini tayyorlovchi sahna ishchisi.
Grim	Грим	makeup	aktyor qiyofasini, ayniqsa, yuzini o'ynaladigan rolga mos qilib maxsus bo'yoq, yasama soch - soqol, plastik massalar va sh.k.lar vositasida o'zgartirish san'ati, shuningdek, ana shu vosi- talarning jami.
Dekoratsiya	Декорация	decoration	sahnada ko'rsatilayotgan voqea o'rmini aks etti- rishga, spektaklning g'oyaviy ma'nosini ochish- ga xizmat qiluvchi sun'iy manzara, badiiy jilhoz. Dekoratsiya rang-tasvir, grafika arxitektura, sahna texnikasi, kinoproeksiya va shu kabilm- ing tasviriy vositalari yordamida yaratiladi.

Diksiya	Дикция	diction	nutqda va kuylashda soʻz va tovushlarni aniq, ravshan talaffuz qilish.
Drama	Драма	drama	1. Muallif nutqisiz, yaʼni dialog shaklida yozilgan va sahnada ijro etish uchun moʻljallangan badiiy adabiyotning lirika va epos qatoridagi biri turi. 2. Tor maʼnoda - dramatik adabiyotning bir qismi, tragediyadan hayot hodisalarining oʻrtacharoq oʻtkirlikda tasvirllovchi bilan, komediyadan esa hayot hodisalarini kulgi orqali emas, balki jiddiy tasvirlash bilan farq qiladi.
Dramaturgiya	Драматургия	dramaturgy	1. Dramatik asarlar majmuasi. Masalan Hamza dramaturgiyasi, 50-yillar dramaturgiyasi. 2. Dramatik asar tuzilishi haqidagi nazariy.
Dublyor	Дублёр	double	1. Musiqa va teatrdagi spektakl (opera, balet, drama, komediya va sh.k.)larda muayyan rolni navbat bilan ijro etuvchi ikki ashlulachi, raqqos, aktyordan biri. 2. Kinoda-filmning matnini dublyaj qilganda ovoz beruvchi aktyor.

Intonatsiya	Интонация	intonation-	1. Tovushning past-baland boʻlib oʻzgarib turishidan iborat ritmik - milodlik nutq tuzilishi, ohang. 2. Musiqada-tovush balandligini toʻgʻri olish darajasi.
Kechinma sanʼati	Актёрское искусство	acting ability	spektakl yoki ekran asarlarida, har bir ijro davomida aktyor ichki kechinmasi bilan rol hissiyotlari birlashib ketishi. Kechinma sanʼat tomoshabinni hayajonlantiradi, hayratga soladi.
Komediya	Комедия	comedy	ijtimoiy hayotdagi nuqsonlarni, kishilardagi yaramas xususiyatlarini kulgi vositasi bilan fosh etuvchi quvnoq, hushchaqchaq xarakterdagi dramatik asar.
Konsert	Концерт	recital	1. Oldindan tuzilgan muayyan dastur asosida sanʼatkorlarning sahnaga (shuningdek, radio va televideniyada) chiqishi. 2. Bir, baʼzan ikki-uch asbob va orkestr uchun yozilgan, odatda virtuoz xarakterdagi musiqa asari.

Kulminatsiya	Кульминация	culmination	biror voqea yoki hodisa rivojlanishidagi eng yuqori nuqta, avjiga chiqish.
Mizansahna	Мизансцена	miseen-scène	Fransuzcha - sahnadagi joylashuv. Pyesadagi konfliktlarning plastik harakatga ko'chirilishi, aktyorlarning ma'lum vaqtda sahnadagi xatti-harakati va joylashuvi.
Marom	Темп	speed	uning asabiy holati, faoliyati. Qahramonning jismoniy xatti - harakati va ruhiy hissiyoti, kayfiyati uni harakat jarayonida sur'at va marom oraliq'ida bir-biriga muvofiq.
Mantiq va izchillik	Логика и последовательность	Philosophy and continuity	aktyor tomonidan sahnada gavdalantirilayotgan shaxsning jismoniy faoliyati, o'y fikrlari natijasidir. Bu natija esa, hissiyot bilan uzviy bog'liq.
Mimika	Мимика	mimicry	sahnaviy harakat jarayonida aktyorning tabiiy, samimiy ifodali yuzi (mimikaga o'rgatib bo'lmaydi - faqatgina yuz muskullarini mashq qildirish asosida ishlab takomillashtirish zarur).

Metafora	Метафора	metaphor	istiora, soʻz yoki iboraning koʻchma maʼnoda ishlatilishi va shunday maʼnoda ishlatilgan soʻz, ibora.
Monolog	Монолог	monologue	dramatik va boshqa asarlar ishtirokchisining suhbatdoshiga, oʻziga, baʼzan tomoshabinlarga qarata aytgan soʻzi, nutqi.
Musiq	Музыка	music	1. Emotsional - gʻoyaviy mazmuni ovozdagi badiiy obrazlar orqali ifodalovchi sanʼat turi. Masalan vokal musiq, simfonik musiq. 2. Shu sanʼatning cholgʻu bilan ijro etiladigan tugal asari, kuy. Masalan: ashula musiqasi.
Pyesa	Пьеса	play	1. Teatrd qoʻyish uchun moʻljallangan dramatik asar. 2. Yakkanaovoz sozanda yoki cholgʻuchilar ansambli uchun yozilgan kichik musiq asari.
Rejissyor	Режиссёр	director	korfaron. Teatr va kinoda dramatik yoki musiqali asarlarni sahnalashtiruvchi hamda filmni suratga olish jarayonini boshqaruvchi.

Rejissura	Режиссура	stage direction	ijodiy va amaliy ish jarayoni.
Repetitsiya	Репетиция	repetition	teatr, sirk, musiqa va sh.k. tomoshalarni ommaga ko'rsatish oldidan sinab ko'rish, mashq qilish, tayyorlash jarayoni.
Rolning oliy maqsadi	Высшая цель роли	target aim of role	bu tomoshabing, tinglovchiga ta'sir etish yo'lida aktyor xatti-harakatining asosiy maqsadi va rolning g'oyaviy mazmuni; oliy maqsad shaxs xatti – harakatining axloqiy mazmunini ifoda etadi yoki salbiy qahramonni engilishiga sabab bo'ladi.
Rol	Роль	role	aktyor tomonidan sahnada, ekranda ijro etiladigan badiiy obraz.
Sahna	Сцена	scene	1. Teatr binosining tomoshabing yaxshi ko'rinish adigan, aktyorlar uchun qulay bo'lgan tomosha ko'rsatiladigan qismi. 2. Pyesa va spektakllardan bir ko'rinish.

Sahna maydoni	Сценическое воплощение	stage area	spektakldagi voqealar kechadigan, xatti-harakat qilinadigan joy boʻlib sahnaning 2-qavatidir.
Sahna nutqi	Сценическая речь	stage re	teatrda badiiy obraz yaratish, pyesada gʻoya, fikr, hissiyotlarni tomoshabinga etkazishda asosiy ifoda vositalaridan biri, shu vositalarni oʻrgatuvchi fan.
Sahna texnikasi	Сценическая техника	Stage technics	sahna qutisi, arxitektura qurilishi, undagi jihozlar va maxsus ayrim spektakllar uchun tayyorlanadigan texnik moslamalar.
Spektakl	Спектакль	performance	teatrning ijodiy jamoasi tomonidan sahnaga qoʻyilgan teatr tomoshasi.
Suflor	Суфлёр	prompter	aktyorga rolining soʻzlarini aytib berib turuvchi teatr xodimi.
Ssenariy	Сценарий	scenario	asar tuzilmasi. Mahalliy dalillarga asoslanib yozilgan boʻlib, toʻlaonli badiiy asar.

Syujet	Сюжет	subject	badiiy asarning asosiy mazmuni va undagi voqea yoki o'zaro uzviy bog'langan va ketma-ket rivojlanib boradigan voqealar yig'indisi, tasviriyl san'atda tasvir buyumi.
Teatr	Театр	theatre	spektakl qo'yilishi uchun mo'ljallangan bino.
Teatr kostyumi	Театральный костюм	Theatrical Suit	tomoshabin va aktyorga bo'layotgan voqea va davrni tushunishga, uning ruhiga singdirishga yordamlashuvchi muallif g'oyasini ochib beruvchi kiyim, parik va grimlar.
Temp	Темп	rate, speed, pace	1. Musiqa asarini ijro etishdagi tezlik darajasi. 2. Ishdagi, harakatdagi sur'at, tezlik.
Tragediya	Трагедия	tragedy	qahramonning biror odamga, tuzumga, hayotga yoki o'z-o'ziga qarshi kurashi aks etgan jismoniy yoki ruhiy halokati bilan yakun topuvchi fojeaviy sahna asari. Dramaturgik janr. Yunoncha "echki qo'shig'i".

Tragiko- mediya	Трагикомедия	tragicom- edy	chuqur drammatizm xarakterlariga ega boʻlgan komik qarama-qarshiliklar asosidagi, ham tra- gediya, ham komediya elementlarini oʻz ichiga olgan dramatik asar.
Yumor	Юмор	humour	voqealarni kishilarning xakteri va xat- ti-harakatidagi turli kamchiliklarni, zaif to- monlarni begʻaraz hajv qilish, hazilomuz, kul- guli tasvirlash.


O'QITISH BO'YICHA METODLAR

Og'zaki	Ko'rgazmali	Amaliy
Hikoya Munozara Suhbat Tushuntirish Ma'ruza	Videometod Kitob bilan ish- lash Illyustratsiya Demonstratsiya	Mashq Didaktik o'yinlar

PEDOGOGIK TEXNOLOGIYA AQLIY HUKUM (BREINSTORMING)

1. Teatr san'ati qaysi marosim sabab paydo bo'lgan?
2. Teatr san'atida paydo bo'lgan ilk janrlarni ayting?
3. Antik teatr dekoratsiyasi haqida nimalarni bilasiz?
4. Aristotel ajratib sanab o'tgan tragediyaning olti tarkibiy qismi nimalardan iborat?
5. Katarsis terminining ma'nosini izohlab bering.

Tarmoqlar metodi (klaster)



ILOVA

Yevripid “Medeya” asaridan parcha, *Asqar Qosimov tarjimasi*

To‘rtinchi maxnzara Yason kiradi

Yason

Chaqiribsan, mana keldim, avzoying buzuq,
Bo‘lsa hamki, tilagingni eshitay deyman,
Qani, qanday gaplaring bor, gapir birma bir.

Medeya

Bunda bo‘lgan mashmashaga avvalo uzr,
Tazarruim qabul ayla, Yason, muhabbat
Bilasanmi, oramizda uzoq yashadi.
Qiziqqonlik qilgan bo‘lsam seni to‘g‘ri tushun.
Shoh malomat qilayotir deb o‘ylabman men,
Men, betavfiq, nega endi shaddodlik qildim?
Aslida bu betginamga ursalar agar
U betimni tutib bersam bo‘larkan, axir
Erim taxtga chiqmoqda ya? Bordiyu erim
Shoh qiziga uylansa ham, bolalarimga

Orttirsa ham uka singil, uning bu ishi
Bizlar uchun... Qiziqqonlik hali shungami?
Nima bo'ldi o'zi senga, Medeya bonu?
Bu hammasi yo yaxshilik sari emasmi?
Yo bizlarda bola yo'qmi? Bormi yurt, shahar?
Yo hammamiz birato'la quvg'indimizmi
Do'st yordan chetda? Ana shularni o'ylab
Xomcho't qilib, angladimki, aqldan emas
Qahru xitob qilganlarim. Men endi dildan
Seni olqab g'ururlandim. Burch va kamtarlik
Seni, Yason, shu kuylarga solgani aniq.
Sen qaytadan uylanmoqni ixtiyor etib
Reja tuzding. Xayolimga o'shanda mening
Senga loyiq yo'l yo'riqlar berish kelmabdi,
Kelinchakning xizmatlarin qilsam bo'lar ku!
Mag'rurlansam oliy nasib kundoshim bilan
Bo'ladi ku? Biz hammamiz xotinmiz asli
Sizlarga sal ozor berdik, afu etgaysiz.
Illo, yason, o'xshamagin zaifalarga,
Zaifalar go'lligiga bolalik qilib
Laqqa tushib o'tirmagin. Butkul noto'g'ri
Sen haqingda mushohada yuritganlarim.
Endi mening fikralarim o'zgardi. Eh he!

(Uydan bolalari chiqadi)

Qo'zichoqlar! Otangizni mahkam quchingiz
Va orqamdan takrorlangki, olqish, mehr la,
Gina saqlab o'tirmaymiz dadangizga hech.
Tinch omonlik o'rnatildi, kudurat unut,

Dadil bo‘ling, bolalarim, mana shunaqa
Mana sizga mening qo‘lim... Vo hasratokim,
Tepangizda qora bulut, bolakaylarim!..
Ortida na? Uzoqmikin umringiz hali,
Qo‘llaringiz izlayotir himoya mendan
Ularga ko‘z tikishlarim mudavommikin?
Sho‘rlik ko‘ngil muncha bo‘shsan, yig‘laysan,
chog‘i,
Borlig‘ingni titroq quchgan. Ha, bolakaylar,
Dadangiz la bir ozgina aytishib oldik,
Lekin ko‘zdan daryo daryo yosh quyulmoqda!

Korifey

Men ham endi tobut toqat qila bilmadim,
Tirqiradi ko‘z yoshlarim. Etar falokat!

Yason

O‘tgan ishni xotiralashga luzum yo‘q endi
Vale gaping menga juda yoqdi. Medeya,
Erkak kishi boshqa bilan yosdiqdosh bo‘lsa,
Qahru xitob qilmoqlikka shaydir xotinlar.
Bu ku bor gap. Shuning uchun sendagi jahl
Avjga minib, yana sokin tortdi oqibat.
G‘olib chiqdi Medeyaining kamsuqumlīgi.
Sizga esa, bolalarim, isbot qilurman
Ma‘budlarning yordamida otaligimni..
Tashvishingiz bsh ustimga. Bir kunmas bir kun
Korinfning eng old kishisi bo‘lursiz shaksiz!..
Bu albatta tug‘ilajak ukalaringiz
Yordamida zohir bo‘lgay. Ungacha sizlar

O'ynab o'sing, bolakaylar, xudo xalloqdir.
Xudo bersa, yoshlikning naq gullagan payti
Siz bu erga qaytarsiz ham, oilamizni
Sizni jondan ziyod ko'rib sevguvchilar bor,
Do'st dushmanga ko'rsatursiz tarbiyat bekor
Ketmaganin. Yana ko'z yosh, voy, seni qara.
Boqmayapsan... Bekitayapsan bizdan jilvangni...
Yoki senga tag'in yoqmay qoldimi, nahot?

Medeya

Shunday o'zim... O'ylantirib qo'ydi bolalar.

Yason

Baxti qora, o'y o'ylamak yig'lash demakmi?

Medeya

To'qqiz oylab ko'targandim... Mana, ularni
Nariroqda yashashlarin xohlaganing chun
Allanechuk bo'lib ketdim, shu rostmi, Yason?

Yason

Aytganlarim bajo bo'lur, dadil bo'l, xotin!

Medeya

Sening chizgan chizig'ingdan chiqmayman nari,
Biz, xotinlar, bo'sh ko'nglimiz, yig'loqmiz azal.
Xo'p, mayliga, bu xususda bo'lgancha bo'ldi.
Ana endi, ko'rayapsan... Shohlarga oson
Meni bundan surgun etmoq, er ularniki.
Biz uchun ham bu natija har qaleiy durust...
Senga hamda ulargada xalaqit bermay
Osmon yiroq, zamin qattiq ta'qib ostida
Umr bo'yi yashamoqlik har nechuk og'ir.

Bugundanoq hozirlayman safar anjomin,
Lek o'tinchim shuki mani, Kreontdan so'ra,
Loaqal u farzandlarga bersin kafolat,
Qabatingda bo'lsin ular Korinf mulkida.

Yason

Nimaykin bu? Albatta u rozi bo'lajak.

Medeya

Kelinga ayt, go'daklarni uning otasi
Ajratmasin, onasiz deb tahqir etmasin.

Yason

Ha, albatta, ko'ndiramiz shunday qilishga...

Medeya

Biz singari ona bo'lgay bir kun kelin ham...
Halitdanoq unga ehson muhayyo etdim,
Xotiningga bolalardin berib yuborgum,
Men bilaman, jahonda yo'q bu kabi narsa.
To'xta... Hozir, joriyalar, bittangiz harir
Sarmo bilan tillaqoshni olib kelingiz.
Ha, bir emas, kelinchakni ng peshonasiga
Bitgan ekan son sanoqsiz boylik va dunyo.
Yotog'ida senday katta amaldor bir er
Buzrukvorning buzrukvori Quyosh bobodan
Avlodlarga meros qolgan libos egnida...
Bu jig'ani oling qo'lga, ey siz bolalar,
Muhabbatli kelinchakka, malikamizga
Eltajaksiz. Qanday havas qilgulik in'om!

Yason

Hey, isrofgar! Nechun g'arib etasan o'zni?
Yoki kammi taqinchoqlar shoh haznasida?

Kerak bo‘lar, asrab qo‘ygin qora kunlarga,
Shundog‘am biz sening uchun qimmatga tushdik,
Tag‘in sovg‘a qilishlaring ortiqcha axir.

Medeya

Unday dema, eritarmish ma‘budlarni ham
Sovg‘a salom, inoyatlar eshitganim bor.
Qandoq latif so‘zlar kerak shu tillaqoshni,
Shu yombini ma‘qullash chun xushbaxt kelinga...
Unga loyiq bu libosim...

Bolalarim shunda qolarkan,
Oltin nima? Hayotimni darig‘ tutmasdim...

(Bolalarga)

Bolalarim, xayr endi koshona sari,
Boringiz da, dadangizning boy xotiniga,
Ya‘ni mening navniholim qirolichaga
Obodongina xush boqing da, iltijo qiling,
Jami sovg‘a salomimni yuz xotir aylab,
Olib qolsin sizlarni ham otangiz bilan...
Eng muhimi, diqqat qiling bu kiyim boshni
O‘zi olsin, qani bo‘ling, jadallang tezroq.
Javobini zor intizor kutajakman men.
Xayrli bo‘lur shak shubhasiz, xudo yor bo‘lsin.
Eshik og‘asi etagida bolalar chiqadi.

TO‘RTINCHI STASIM

Xor

I band

Hoy, bolalar! Tun sizga yaldo bukun.
Qonli oyoq tashlash ila qo‘rqinchili o‘ch
O‘z ishiga yakun yasar:
Qo‘llarida sirtmoq yarq etib ketdi.
Lahzada Aid qizni chulg‘ar;

I aksil band

Jilovlanib qolar soch tuguni ham...
Ammo xil‘atning ilohiy jodulari,
Oltin jig‘a gulchambari,
Kelinchakni ardoqlamas bekorga:
Unga Aid yotog‘i iohaq,
Jahannamning otash azobi.
O‘z to‘ri la band aylagay,
O‘t ichida yonar ul hali...

II band

O, sen badbaxt kuyov, shoh ardoqlisi.
Nahot ko‘rmaysan?!
Pichoq borib etmoqda bolalar sari.
O‘zing mash‘al tutib turmadingmi
Kelinchak xil‘atiga?
O, sen qanday yiroqsan qalban,
Ey, taqdiri hal bo‘lgan erkak!

II aksil band

Sen bilan birga yig‘layman, Medeya,

Ey, bolalar qotili.
Ey, bag‘ritosh Yasonzoda onaizori!
Ular go‘shangaga kirgani uchun
Bolalaridan xun olmoqchisan,
Naki ering imonsizlarcha
Bergan boshqaga ko‘ngil.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Tursunboyev S. Jahon teatri tarixi. -T., “Fan va texnologiya”, - 2008-y.
2. Tursunboyev S. Xorij teatri tarixi. -T., Cho‘lpon nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2006-y.
3. Tursunov T. XX asr o‘zbek teatri tarixi, -T., 2009. 1-2-kitob.
4. Tursunov T. Sahna va Zamon, -T., Yangi asr avlodi, 2007-y.
5. Qodirov M. Tomosha san’atlari o‘tmishda va bugun. (Birinci va ikkinchi tomlari). -T., 2008-y.
6. Qodirov M. An’anaviy o‘zbek teatri tarixi. Toshkent, 2004-y.

Qo‘shimcha adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasi. Toshkent sh., 2017-yil 7-fevral, PF-4947-son Farmoni.
2. Erkin va farovon, demokratik O‘zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti lavozimiga kirishish tantanali marosimiga bag‘ishlangan Oliy Majlis palatalarining qo‘shma majlisidagi nutq. /Sh.M.Mirziyoyev. - Toshkent: «O‘zbekiston», 2016. -56-b.

3. Mirziyoyev Sh.M. Tanqidiy tahlil, qat’iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik – har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo’lishi kerak. Mamlakatimizni 2016-yilda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning asosiy yakunlari va 2017-yilga mo’ljallangan iqtisodiy dasturning eng muhim ustuvor yo’nalishlariga bag’ishlangan Vazirlar Mahkamasining kengaytirilgan majlisidagi ma’ruza, 2017-yil 14-yanvar. - Toshkent: «O‘zbekiston», 2017. -104-b.

4. Abulqosimova X. “Kino san’ati asoslari” -T., O‘zbekiston Milliy Ensiklopediyasi Davlat ilmiy nashriyoti, 2009-y, -100-b.

5. Tojiboyeva O.Q. Epos va teatr (ikkinchi kitob), Toshkent, 2016-y.

6. Кодиров М.Х. Труды искусство. Тошкент, 2010 й.

7. Театральная энциклопедия.Т.: 1-5 томлар, М., 1961-1967 г.г, (муаллифдошлар гуруҳи).

8. Boltaboyev X. Fitrat va san’at nazariyasi.// O‘zbekiston adabiyoti va san’ati. – Toshket. 1998-y.

Internet saytlar:

1. www.vgik.info
2. [www. Ziyonet. uz](http://www.Ziyonet.uz)
3. www. edu. uz
4. www.wikipedia.ru
6. www.artyx.ru
7. www.biblioteka.ru

O'quv-uslubiy nashr

FERUZA KOBILOVA

ANTIK DAVR TEATRI

Uslubiy qo'llanma

Muharrir

Dilnoza ABDURAZZOQOVA

Badiiy muharrir

Sunnat MUSAMEDOV

Sahifalovchi

Nafisa QURBONOVA

Bosishga 2020-yil 03.01 da ruxsat etildi.

Bichimi 84x108 1\32.

Bosma tabog'i 2,5. Shartli bosma tabog'i 4,2.

Garnitura «Times New Roman». Ofset qog'ozi.

Adadi 500 nusxa. Buyurtma № 5.

Bahosi kelishilgan narxda.

Manzil: 100129, Toshkent shahri,

Shayxontohur tumani, Navoiy ko'chasi, 30-uy.